

“SAN’AT VA TA’LIM SOHASIDA FIDOYI USTOZ”

O‘zbekiston Davlat Konservatoryasi Nukus filiali

“umumiy kasbiy va social-gumanitar fanlar” kafedrası

“Musiqashunoslik” mutaxassisligi 3- kurs talabasi

Madrimova To’xtajon

Ilmiy rahbar: **Kamalova Gulmaryam Maksedullaevna**

Anotatsiya:Maqolada G‘ayratbay Mambetqadirovning hayoti, pedagogik va ilmiy faoliyati, san‘at sohasidagi yutuqlari hamda yoshlarni tarbiyalashdagi roli yoritilgan. U tasviriy san‘at va chizmachilik bo‘yicha o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratib, talabalarni innovatsion metodlar orqali o‘qitishda faol qatnashadi. Shuningdek, xalqaro va respublika ko‘rgazmalari hamda tanlovlarda ishtiroki uning ilmiy va ijodiy salohiyatini ko‘rsatadi.

Kalit so‘zlar: G‘ayratbay Mambetqadirov, pedagog, san‘atshunos, tasviriy san‘at, ilmiy-pedagogik faoliyat, talabalar, ijodiy salohiyat

Аннотация:Статья освещает жизнь и педагогическую деятельность Гайратбая Мамбеткадырова, его достижения в области искусства и роль в воспитании студентов. Он создаёт учебно-методические пособия по изобразительному искусству и активно использует инновационные методы преподавания. Участие в республиканских и международных выставках и конкурсах демонстрирует его научный и творческий потенциал.

Ключевые слова:Гайратбай Мамбеткадыров, педагог, искусствовед, изобразительное искусство, учебно-педагогическая деятельность, студенты, творческий потенциал

Abstract: This article highlights the life, pedagogical and scientific activities of Gayratbay Mambetqadirov, as well as his contributions to the field of art and the education of young talents. He has developed educational and methodological materials in visual arts and actively implements innovative teaching methods to enhance students' creative and

intellectual potential. His participation in national and international exhibitions and competitions demonstrates his scientific and artistic achievements. Mambetqadirov's work plays a significant role in fostering the artistic, educational, and cultural development of the younger generation.

Keywords: Gayratbay Mambetqadirov, educator, art scholar, visual arts, pedagogical activity, students, creative potential

G'ayratbay Mambetqadirov — San'at va Ta'lim Sohasining Fidoyi Ustozlaridan Biri

G'ayratbay Mambetqadirov 1974-yil 1-yanvarda Qoraqalpog'iston Respublikasi Muynoq tumanida tug'ilgan. Millati qoraqalpoq, ma'lumoti oliy. U yoshlik chog'idan san'atga, tasviriy ijodga qiziqib ulg'aygan. Shu qiziqish uni kelajakda san'at yo'nalishiga yetaklagan. 1980-yilda Muynoq tumanidagi 3-sonli umumta'lim maktabining 1-sinfiga o'qishga kirgan G'ayratbay Mambetqadirov 1989-yilda 9-sinfni muvaffaqiyatli tamomlagan. O'qish davridayoq u rangtasvir san'atiga bo'lgan iste'dodi va qiziqishini namoyon etgan. Shu yili u Nukus shahridagi J. Shamuratov nomidagi Nukus davlat san'at bilim yurtining rangtasvir bo'limiga o'qishga kirgan. 1994-yilda bilim yurtini tamomlagach, u o'z bilimini yanada chuqurlashtirish maqsadida Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institutining "Tasviriy san'at, chizmachilik va sharq xalqlari hunarmandchiligi" yo'nalishiga o'qishga kiradi. 1999-yilda mazkur oliy ta'lim muassasasini muvaffaqiyatli bitirib, ushbu yo'nalish bo'yicha to'liq malakali mutaxassis diplomini qo'lga kiritadi. O'sha yili, ya'ni 1999-yilda, G'ayratbay Mambetqadirov mehnat faoliyatini Nukus davlat pedagogika institutining "Chizmachilik va tasviriy san'at" kafedrasida assistent-o'qituvchi lavozimida boshlagan. U o'zining mehnatsevarligi, mas'uliyati va bilimga chanqoqligi bilan jamoada e'tirofga sazovor bo'lgan. Keyinchalik katta o'qituvchi lavozimiga tayinlanib, pedagogik faoliyatini yanada samarali davom ettirgan. G'ayratbay Mambetqadirov o'z faoliyati davomida izlanishdan to'xtamagan, ta'lim jarayonida zamonaviy pedagogik metodlarni joriy etish, o'quv mashg'ulotlarini yangicha yondashuvlar asosida tashkil etish orqali talabalar uchun samarali o'quv muhiti yaratgan. U o'z darslarini nafaqat nazariy, balki amaliy mashg'ulotlar bilan boyitib, talabalar bilimini chuqur o'zlashtirishga katta e'tibor qaratadi. Har bir darsni talabalar

qiziqishi va tayyorgarlik darajasiga mos ravishda tashkil etib, ularning san'atga bo'lgan muhabbatini oshirishga intiladi. Har o'quv yili davomida u davlat malakaviy amaliyotlarida metodist sifatida faol ishtirok etadi. Talabalarga innovatsion texnologiyalar asosida dars tashkil etish, mahorat darslarini tayyorlashda yordam beradi. Shu bilan birga, kafedra doirasida iqtidorli talabalar bilan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borib, ularning ilmiy fikrlash, tahlil qilish va mustaqil ijodiy faoliyat yuritish ko'nikmalarini shakllantirishga katta hissa qo'shadi. G'ayratbay Mambetqadirov rahbarligida yozilgan talabalar ilmiy ishlari muntazam ravishda nashrlarda chop etilmoqda. Bu esa uning ilmiy rahbarlik faoliyati samarali ekanligidan dalolat beradi. U yoshlarni faqat o'qitish bilan cheklanmay, ularni san'at va ilm-fan yo'lida izlanishga, mustaqil fikrlashga, ijodiy yondashishga chorlab keladi. U o'z faoliyati davomida nafaqat o'qituvchi, balki tarbiyachi sifatida ham yoshlarga o'rnak bo'lib kelmoqda. Kafedra huzurida talabalarning ijodiy va intellektual salohiyatini ro'yobga chiqarish, yosh olimlar va iqtidorli san'atkorlarni qo'llab-quvvatlash, ularning tashabbuslarini rag'batlantirish uchun zarur sharoitlar yaratib beradi. U yoshlar bilan ishlashda ularning qobiliyatini rivojlantirish, san'atga, ilm-fanga va milliy qadriyatlarga bo'lgan qiziqishini oshirishga alohida e'tibor beradi. G'ayratbay Mambetqadirov o'zining yuksak mas'uliyati, fidoyiligi va yangilikka intilishi bilan san'at va ta'lim sohasida hurmatga sazovor o'qituvchilardan biridir. Bugungi kunda ham u o'z kasbiga sadoqat bilan xizmat qilib, yangi avlod rassom va pedagoglarini tarbiyalash, ularni ijod va ma'naviyat yo'lida yetaklash ishiga katta hissa qo'shib kelmoqda. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi talabalari faoliyati

O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligi tizimidagi ta'lim muassasalari talabalari o'z ijodiy ishlari va tashabbuslari bilan ko'plab ko'rgazmalarda, tanlovlarda hamda xalqaro loyihalarda faol ishtirok etib kelmoqdalar. Bu esa yoshlarning san'at va madaniyat sohalarida erishayotgan yutuqlari, ijodiy izlanishlari hamda o'z qobiliyatlarini namoyon etishlari uchun yaratilgan imkoniyatlarning samarasidir. 2019–2020 o'quv yilida 3-kurs talabasi Ametov Atabek “Rassom ustaxonasida mehmonda” loyihasi doirasida o'tkazilgan “Uyda qoling va ijod qiling” nomli onlayn tanlovda “Eng yaxshi g'oya muallifi” nominatsiyasi bo'yicha diplom bilan taqdirlandi. Bu ishtirok uning

san'atga bo'lgan mehrini, yangicha fikrlash va badiiy g'oyalarni ilgari surish salohiyatini yaqqol namoyon etdi.

Shuningdek, Yusupova Aziza Farg'ona viloyati Qo'qon shahrida o'tkazilgan birinchi "Xalqaro hunarmandchilik festivali"da faol ishtirok etib, o'zining milliy qadriyatlar va an'anaviy san'atga bo'lgan e'tiborini ko'rsatdi. Qalbaev Nurlan esa Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika instituti Tasviriy san'at va texnologik ta'lim fakultetida bir oy davomida o'zining yakka ko'rgazmasini namoyish etdi. Shu bilan birga, u Rossiya rassomlari professional ittifoqi hamda Zamonaviy san'at Xalqaro Akademiyasi tomonidan tashkil etilgan "Iskusstvo. Sovershenstvo. Priznanie" tanlovining "ElitArx" xalqaro nominatsiyasi sohasida kumush medal va diplom bilan (Moskva, 2021-yil) taqdirlandi. Bu yutuq Nurlanning nafaqat respublika, balki xalqaro miqyosdagi san'at maydonida ham e'tirof etilgan iste'dodli rassom sifatida shakllanayotganini ko'rsatdi. Shuningdek, institut tarixida ilk bor, O'zbekiston Respublikasi talabarlari uchun ta'sis etilgan Kamoliddin Behzod nomidagi davlat stipendiyasining "San'atshunoslik va muzeyshunoslik" (yo'nalishlari bo'yicha) sohasida 2020–2021 o'quv yilida 3-kurs talabasi Sarsenova Gulnur g'olib bo'ldi. Bu natija talabaning ilmiy va ijodiy izlanishlari, o'z ustida tinimsiz ishlashi hamda institutda yaratilgan ilmiy muhit samaradorligining yaqqol ifodasidir. Shuningdek, G. A. Mambetkadyrov respublika va institut miqyosidagi siyosiy, tarbiyaviy, ma'naviy-ma'rifiy hamda jamoat ishlarida doimo faol ishtirok etib kelmoqda. 2020–2021 va 2021–2022 o'quv yillarida u Respublika "Mahorat maktabi" seminarlarida ochiq darslar tashkil qilgan. U talabalarning darsdan bo'sh vaqtlarini mazmunli o'tkazish, jismonan va ruhan tarbiyalanishlari, ma'naviy hamda intellektual rivojlanishlari uchun zarur sharoit yaratish borasida faoliyat olib bormoqda. G. A. Mambetkadyrov talabalar turar joyida ijtimoiy hayot, kitobxonlik va ma'naviy qadriyatlar haqida muntazam tarzda qiziqarli davra suhbatlari tashkilotchisi sifatida ham tanilgan. U institut miqyosida "Qalam tasvir", "Kompozitsiya", "Rang tasvir" fanlaridan tasviriy san'at va muhandislik yo'nalishidagi bakalavr talabalariga yuqori darajadagi ilmiy-nazariy ma'ruzalar o'qib kelmoqda. Shuningdek, o'quv jarayonini metodik va nazariy adabiyotlar bilan ta'minlashda faol ishtirok etmoqda. G.A. Mambetkadyrov oliy ta'lim muassasasining o'quv jarayonini o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlashda yetakchi hisoblanadi. Xususan, tasviriy

san'at va muhandislik grafikasi ta'limi yo'nalishidagi talabalar uchun mutaxassislik fanlari bo'yicha o'quv va o'quv-uslubiy qo'llanmalarni yaratish hamda ularni amaliyotga tadbiq etishda faol rol o'ynaydi. Ushbu qo'llanmalar o'quv jarayonida qo'llanib, talabalar uchun qulay va samarali ta'lim muhitini shakllantiradi. Qo'llanmalar Qoraqalpoq va o'zbek tillarida tayyorlanib, chop etishga muvaffaq bo'lgan. Kafedra maktab, akademik litsey va kasb-hunar kollejlari bilan hamkorlik qilib, ilmiy-pedagog kadrlar tayyorlashda o'quv, ilmiy, uslubiy va ma'naviy-ma'rifiy materiallar tayyorlashda ham faol ishtirok etadi. G.A. Mambetkadyrov doimo pedagogik mahoratini oshirishga intilib, O'zbekiston Respublikasi Toshkent Madaniyat institutidagi R.K.Q.T va ularning MOTM qo'shidagi markazda (Tasviriy san'at va amaliy san'at) 288 soatlik qayta tayyorlash kursini muvaffaqiyatli tamomlagan. "Rang tasvirda natyurmort ishlashning" modulini innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida o'qitish bo'yicha bitiruv ishini 16,4/20 ball bilan himoya qilgan (01.03.2017–28.04.2017, MO №215).

Shuningdek, u O'zbekiston Respublikasi Boshqaruv kadrlarini zaxirasini maqsadli o'qitish kursini (352 soat) tamomlagan (20.05.2019–15.04.2019, ZK №000491) hamda oliy ta'lim muassasalari pedagog kadrlar uchun mo'ljallangan 36 soatlik "Moskovskiy pedagogicheskiy gosudarstvenny universitet" masofaviy kursini to'liq o'zlashtirgan (Serifikat 772409148114, 2019 yil). Institutda har yili o'tkaziladigan ilmiy-nazariy anjumanlar, Respublika va xalqaro konferensiyalarda o'z ma'ruzalari bilan ishtirok etadi. Shuningdek, Mustaqillik, Navro'z, Konstitutsiya va boshqa bayramlarga bag'ishlangan ko'rgazmalarda talabalarni faol jalb qiladi. Institut rektorati tomonidan uning mehnati e'tirof etilib, G.A. Mambetkadyrov "Qoraqalpog'iston Xalq bilimlendiriw ag'lasi" ko'krak nishoni bilan taqdirlashga tavsiya etilgan va ta'lim vazirligi tomonidan ushbu sharafiga munosib deb topilgan. 2019 yil iyunida u "Qoraqalpog'istonda haykaltaroshlikning shakllanishi va rivoji" mavzusida himoya qilib, San'atshunoslik fanlari falsafa doktori (Ph.D) ilmiy darajasini olgan. Mehnat faoliyati davomida jami 20 ta ilmiy ish, jumladan, 13 ta xalqaro va respublika ilmiy jurnal maqolalari, 1 ta o'quv va 2 ta o'quv-uslubiy qo'llanma muallifi bo'lgan.

2018–2019 va 2021–2022 o‘quv yillarida Ajiniyoz nomidagi Nukus DPi bakalavr yo‘nalishi bitiruvchilari bitiruv malakaviy ishlarini Davlat attestasiyasi komissiyasi a‘zosi sifatida baholab kelgan. Shu bilan birga, O‘zbekiston Respublikasi “Milliy Tiklanish” partiyasi a‘zosi hisoblanadi (02-01 №2044, 12-mart 2014). 2025 yilda G.A. Mambetkadyrovga Oliy Attestatsiya Komissiyasi tomonidan Do‘sent ilmiy unvoni berilgan. G.A. Mambetkadyrov ijodiy, ilmiy va pedagogik kadrlar tayyorlashda alohida o‘rin egallaydi. U pedagogik faoliyati davomida ko‘plab shogirdlar tarbiyalagan, yetuk pedagog, olim va ma‘naviy barqaror shaxs sifatida jamoatchilik va hamkasblari orasida yuqori hurmatga ega. Xulosa qilib aytganda, G‘ayratbay Mambetkadyrov nafaqat yetuk pedagog va olim, balki ijodiy va ilmiy salohiyatga ega, ma‘naviy barkamol shaxs sifatida tanilgan. Uning faoliyati talaba yoshlarning intellektual, badiiy va ijodiy salohiyatini rivojlantirish, oliy ta‘lim jarayonini zamonaviy talablarga moslashtirish hamda ilmiy-pedagogik kadrlar tayyorlashda muhim ahamiyat kasb etadi.

Mambetkadyrov o‘quv-uslubiy qo‘llanmalar yaratish, xalqaro va respublika konferensiyalari, ilmiy jurnallarda maqolalar nashr etish orqali yosh olimlar va talabalar uchun bilim manbai bo‘lib xizmat qiladi. Shu bilan birga, u institut va respublika miqyosidagi madaniy-ma‘rifiy tadbirlar, ko‘rgazmalar va bayram loyihalarida faol ishtirok etib, yosh avlodning ma‘naviy va intellektual rivojlanishiga sezilarli hissa qo‘shmoqda.

Ustoz sifatida G‘ayratbay Mambetkadyrov ko‘plab shogirdlarni yetuk mutaxassislar qilib tarbiyalagan, har birining ijodiy izlanishlarini rag‘batlantirgan va ilmiy faoliyatini rivojlantirishga yordam bergan. Bu uning pedagogik tajribasi, yetuklik va insonparvarlik xususiyatlarini yaqqol namoyon etadi. Shu tariqa, G‘ayratbay Mambetkadyrovning faoliyati nafaqat ta‘lim muassasalari, balki butun madaniy va ilmiy jamiyat uchun qimmatli meros bo‘lib qoladi.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak Umuman olganda, uning ilmiy, pedagogik va ijodiy yutuqlari ta‘lim tizimi va san‘at sohasini rivojlantirishga beqiyos hissa qo‘shgan. G‘ayratbay Mambetkadyrovning shaxsiy fidoyiligi, professional mahorati va ma‘naviy barkamolligi yosh avlod uchun doimiy namuna bo‘lib kelmoqda.

Foydalangan adabiyotlar

1. Kamalova G. JAMIL CHARSHEMOVTIŇ "POPURRI" SHÍGARMASÍNÍN ÓZGESHELIGI //Becthnk my3bikn n ckycctba. - 2024. - T. 1.- Ne. 4.- C 52-57.
2. Kamalova,.G. & Dauletbaeva, G. (2024). DUWTAR SAZ ÁSBABÍN ZAMANAGÓYLESTIRIWDIŇ ÁHMIYETI. BecTHnK My3bIKn n MCKyCCTBa, 1(4), 89-94. извлечено от <https://science.uzdknf.uz/index.php/science/article/view/231>
3. Dauletbaeva G., Kamalova G. A SHINING STAR //Modern Science and Research. - 2023.- T.2.- Ne. 10.- C. 880-884
4. Kamalova G. JAMIL CHARSHEMOVTIŇ "POPURRI" SHÍGARMASÍNÍN ÓZGESHELIGI //BeCThnK My3bIkn n nckycctBa. - 2024.- T. 1.- Ne. 4.- C. 52-57.
5. Kamalova,. G., & Dauletbaeva, G. (2024). DUWTAR SAZ ÁSBABÍN ZAMANAGÓYLESTIRIWDIŇ ÁHMIYETI. BecThnK My3bIKn w nckyCCTBa, 1 (4), 89-94. извлечено от <https://science.uzdknf.uz/index.php/science/article/view/231>
6. Kamalova G. QÁLEMI ÓTKIR KOMPOZITOR (D. Djańabaeva dóretiwshilik joli) //BecthnK my3bikn n nckycctba. - 2023. - T. 1.- Ne. 2. - C. 37-39,
7. Kamalova G.M. Kompozitor Dariko Djanabaeva Nókis, "Ilimpaz". 2023.-- 86-betDauletbaeva G., Kamalova G. A SHINING STAR//Modern Science and Research. - 2023. - T. 2.- Ne. 10.- C. 880-88